



## NEFT HAQIDA

*Shermatov Ozodbek Obitjon o'g'li*

[ozodbekshermatov9109@gmail.com](mailto:ozodbekshermatov9109@gmail.com)

*Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Teknika universiteti. Olmaliq filyali  
Metallurgiya va kimyoviy tehnalogiya fakulteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada neftni olinish usullari va xususiyatlari to'g'risita ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlari:** neft xususiyati, qattiq uglevodlar, gaz holida, neftni qayta ishslash, neftni tozalash.

Neft – yoqimsiz hidli, rangi sariq yoki och-qo'ng'ir rangdan qora rangacha, moysimon suyuqlik. Neft suvdan biroz yengil bo'ladi va suvda erimaydi. Neftdan raketaclar uchun yonilg'i, dizal, hamda ichki yonuv dvigatellari uchun yonilg'i, surkov moylari, parafinmoyi, ya'ni vazelin va boshqa mahsulotlar olinadi. Neftning tarkibida, uglevodorodlardan tashqari, ba'zan kislodorli va oltingugurtli va azotli birikmalar ham bo'ladi, turli joydan chiqqan neftning tarkibi turlicha bo'lib, ular solishtirma og'irligi ham turlicha bo'ladi. Neftning tarkibidagi uglevodorodlarning agregat holati 3 xil (qattiq, suyuq va gaz) bo'ladi: 1) Gaz holidagi uglevodorodlar yer tagidan tabiiy gaz yoki yo'ldosh gaz (neft qazib olishda chiqadigan gaz) holida bo'ladi; 2) Tarkibida, asosan, suyuq uglevodorodlar bo'ladigan neft – parafin asosli neft deb ataladi; 3) Qattiq uglevodorodlar bo'ladigan neft – asfalt asosli neft deb ataladi. Neftning paydo bo'lish gipotezalari 2ta bo'lib: 1) Ba'zi olimlar neft metall karbidga (metallarning uglerodli brikmalariga) suv ta'sir etishidan paydo bo'lgan deyishgan; 2) Boshqa olimlar esa neft yer ostida qolib ketgan o'simlik va hayvonlarning chirishidan hosil bo'lgan deb taxmin qiladilar.

Neftni qayta ishslash - Neftdan neft mahsulotlari olishda qo'llanadigan

texnologik usullar majmui. Neftni qayta ishlashdan avval neft tarkibidagi suv, tuz va mexanik aralashmalar tozalanadi, keyin uni stabillashtirish, yuqori haroratda bug'latib haydash, distillyatlarni tozalash, qo'shimchalar qo'shish va boshqalar bajariladi. Neftni haydash usullari - Odatda neftdan quyidaga temperaturalar oralig'ida qaynab bug'lanadigan distillyatlar olinadi: benzin 28—180°, ligroin 110—230°, kerosin 120—315°; gazoyil 230—330°; solyar 280—380°; moy 320—500°.

Neftni tozalash: Neft mahsulotlarining sifatini yaxshilash maqsadida olingan distillyatlar tozalanadi. Distillyatlarni oltingugurt, azot, kislorod va to'yinmagan uglevodorodlardan tozalash uchun gidrotozalash jarayoni qo'llanadi. Gidrotozalash 350—420° da va 1,7 — 40 MPa bosimda katalizator yordamida amalga oshiriladi. Gidrotozalash, asosan, dizel yonilg'isi va moy distillyatlarini oltingugurtdan tozalashda va ayrim distillyatlarni ikkilamchi jarayonga tayyorlashda ishlatiladi.

Yonilg'i distillyatlaridagi kislorod va oltingugurtli birikmalarni yo'qotishda ishqor bilan tozalash usuli ham qo'llanadi. Bu jarayonda tozalanayotgan mahsulotga ishqor va suv qo'shib, hosil bo'lgan birikmani mahsulotdan ajratib olinadi.

Yonilg'i va moy distillyatlarining sovuq paytda qotib qolmasligini ta'minlash maqsadida ular parafinsizlantiriladi. Bunda tez quyuqlashadigan parafin uglevodorod distillyatlardan ajratib olinadi.

Neftni to'g'ri haydalganda ajralib chiqqan benzin, kerosin va dizel yonilg'isi fraksiyalarining jami ulushi neft hajmining 40—50 % idan oshmaydi. Yonilg'ilarni ajratib olish ulushini oshirish va ularning sifat darajasini yanada ko'tarish maqsadida neftni kimyoviy qayta ishlash, ya'ni ikkilamchi jarayonlar qo'llanadi. Ular orasida kreking jarayoni — uglevodorodlarni parchalash jarayoni keng tarqalgan. Benzinlarning detonatsiyaga turg'unligini oshirish maqsadida uglevodorodlarni alkillash va izomerlash jarayenlari ham qo'llanishi mumkin. Neft mahsulotlarining sifatini yaxshilash uchun qo'shimchalar qo'shiladi.

### **Xulosa:**

Men neft mavzusi bo'yicha olgan malumotlarimni keljakda o'zimning ish foaliyatim uchun kerak bo'ladi deb o'yiman. Bu mavzu juda ham qiziqarli va turli

tuman reaksiyalar bo'ladi. Qora oltinimiz ko'pgina sohalarda ishlatilgani sababli bu malumotlarnini barcha bilishi kerak.

## **FOYDALANGAN ILOVALAR**

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. <https://kun.uz>
3. <https://sinaps.uz>
4. <https://elib.buhdu.uz>
5. <https://arxiv.uz>